

Munira Ismoilova

Farxod qizi

UzDJTU XTA3

Fakulteti 2-kurs

Talabasi .

Ilmiy rahbar :Bobur Umarov Norboyevich

UzDJTU XTA3 fakulteti katta o'qituvchisi.

TIL O'RGANISHDA ENG ASOSIY MASLAHATLAR .

Annotatsiya: Til- ijtimoiy hodisa.Hozirgi kunda xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan talab kun sayin oshib bormoqda . Men ushbu maqolamda chet tillarini qanday oson va samarali o'rganish haqida eng kerakli maslahatlarni berib o'taman

Annotation: Language is a social phenomenon . Today, the demand for learning foreign language is increasing day by day .In this article , I will give the most necessary tips on how to learn foreign languages easily and efffectively .

Аннотация: Язык – это социальное явление, сегодня потребность в изучении иностранных языков возрастает с каждым днем. В этой статье я дам самые необходимые советы, как легко и эффективно выучить иностранные языки.

Kalit so'zlar:Til,Vazirlar Mahkamasi , agentlik, sertifikat, Ingliz tili, Duolingo,Memrise, Kato Lomb, badiiy adabiyotlar ,sinxron tarjimon .

Keywords: Language, Cabinet of Ministers, agency, certificate, English language, Duolingo, Memrise, Cato Lomb, fiction, simultaneous interpreter.

Ключевые слова: Язык, Кабинет Министров, агентство, сертификат, английский язык, Duolingo, Memrise, Cato Lomb, художественная литература, переводчик-синхронист.

Bilamizki, Vazirlar Mahkamasining "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida "2021-yil 19-maydagi 312-son qaroriga muvofiq Qoraqalpog'ston Respublikasi Vazirlar

Kengashi , viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan har yili tuman (shahar)dagi maktablarni xorijiy tillarni o'qitish uchun zarur bo'lgan adabiyotlar ,asbob-uskunalar ,zamonaviy axborot texnologiyalari bilan ta'minlash uchun mahalliy budgetlardan 1mlrd so'mdan kam bo'lmasan miqdorda mablag' ajratilishi belgilab qo'yilgan.Agentlik Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Maktabgacha ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan birgalikda:

malakali mutaxassislarni jalb etgan holda 2022-yil 1-martdan boshlab chet tili fani o'qituvchilarining tinglab tushunish, o'qish, yozish hamda gapirish kompetensiyalarini rivojlantirishga hamda sertifikatga ega bo'lishlariga yo'naltirilgan o'quv kurslarini tashkil etishi to'g'risida farmoni imzolangan . Bundan ko'rinish turibdiki , hozirgi kunda til o'rganishga bo'lgan ehtiyoj kun sayin yanada oshib bormoqda .Bilasizmi ?Til o'rganishga bo'lgan ehtiyoj nega bunchalik yuqori . Barcha talabgorlar o'z qiziqishlaridan kelib chiqib o'rganyaptimi yoki bunga qanaqadir maqsadlari sababchimi?Albatta ,hamma ham o'z qiziqishlari uchun emas , balki, aksincha , o'z karerasini qurishda bosib o'tiladigan yo'lida bu talab ham peshqadamlik qiladi .

Bilamizki , Ingliz tili dunyo tillari ichida eng asosiy tillardan biri .Buning isboti hayotimizda o'z aksini topgan . Bu yaxshi albatta. Bog'cha yoshdagidan bolalardan boshlab barcha birdek til o'rganishga kirishgan.Ingliz tilini qanday tez va oson o'rgansa bo'ladi?

Avvalo , o'rganuvchi , qiziqishi va izchillik asosida til o'rganishga kundalik sarflaydigan vaqt ,miqdori , inglizcha muhit kabilalar muhim bo'lsa , foydalanimadigan darslik sifati , mahoratlari va bilimli o'qituvchi va til o'rganishdagi to'g'ri yondashuv usullari kabilarning ham yangi til o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi .Men o'z tajribalarimdan kelib chiqib aytolamanki , tilni majburiyat sifatida o'rganmang hoh u ingliz tili bo'lsin hoh u boshqa til bo'sin. Tilni o'z qiziqishingiz sifatida o'rganing va vaqtingizni to'g'ri taqsimlang.Ba'zi shikoyatlar qulog'imga chalinadi,qaysi tilni o'rganayotgan bo'lsangiz o'sha tilda gaplashuvchi insonlar bilan o'sha muhitda yashasa tez muloqotga kirishadi deb , aslini olganda 21-asr axborot texnologiyalar asrida bu kabi vajlarga o'rinn qolmadi deb o'ylayman.

Birinchi navbatda maqsadni aniq belgilab oling , aniq maqsadsiz biron ishda , xususan til o'rganishda muvaffaqiyatga erishish mumkin emas. Ikkinchidan til asosini takrorlash tashkil etadi. Tilni doimiy takrorlashsiz o'rganib bo'lmaydi . Uchinchidan , muloqot qiling. Til muloqot vositasidir .Shu sababli , tilni o'rganish

va rivojlantirish uchun tabiiyki muloqot qilishingiz kerak .To’rtinchidan , til o’rganish jarayonini hayot tarzingizga moslab boring . Eng oxirgisi , Smartfoningizdan samarali foydalaning . Til o’rganish jarayoni uzun va mashaqqatli jarayon bo’lganligi sababli , uni iloji boricha osonlashtirishga harkat qiling .Bunda sizga smartfoningiz qo’l keladi . Smartfonlarga o’rnatib olish mumkin bo’lgan bepul ingliz tili o’rganish dasturlari bor . Ular orasida eng mashhurlari bu -Duolingo va Memrise . Duolingo va Memrise bir biriga o’xshaydi . Ammo , eng birinchi ko’zga ko’rinadigan farqi Duolingoda so’zlar ko’proq American English’da , Memriseda esa so’zlar ko’proq British English’da talaffuz etiladi.

Bundan tashqari har qanday chet tilini o’rganishda o’sha tilning turmush tarzi madaniyati va urf-odatini o’rganib boradi . Til o’rganish uchun o’zingizning har kunlik ajratadigan vaqt jadvalini tuzib oling . Yangi so’zlarni yod olishda yoningizga kartochka olib yurishni maslahat beraman. Dunyodagi ilk sinxron tarjimonlardan biri bo’lmish Kato Lomb asl mutaxasisligi kimyo fani bo’lishiga qaramay 8ta tilda qiyinchiliklarsiz tarjima qilgan,16 ta tilda erkin muloqot qilishni uddalagan .G’aroyib jihat shundaki ,Lomb tillarning ko’pchilagini mustaqil o’zlashtirgan .Bu jarayonda u xorijiy tildagi darslik va badiiy adabiyotlar bilan ishlagan .Uning mashhur asarlaridan biri “Men tilni qanday o’rganganman” asarini o’qishni tavsiya etaman .O’ylaymanki , bu asar til o’rganishda sizga ancha qo’l keladi .Albatta, siz qunt va mustahkam iroda bilan til o’rganishda davom eting azizlarim!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. [34-сон 19.01.2022. Xorijiy tillarni o’rganishni takomillashtirish bo’yicha qo’shimcha choratadbirlar to’g’risida \(lex.uz\)](#)
2. [Ingliz tilini tez o’rganish uchun 5 maslahat \[Samarali til o’rganish yo’llari\] \(uzbekimmigrant.com\)](#)
3. [Til o’rganishning 10 ta qoidaga asoslangan oson usullari haqida malumot - YouTube](#)